

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

АНДИЖОН МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ

«ИҚТИСОДИЁТ» ФАКУЛЬТЕТИ
«ИҚТИСОДИЁТ» КАФЕДРАСИ

«ИҚТИСОДИЁТ»
факультет декани
С. Абзамов
2010й.

«ХИМОЯГА ҚЎЙИЛДИ»
кафедра мудири
Д. Нурматов
«11» 06 2010й.

“Джи Эм Ўзбекистон” ЁАЖда амортизация усулларидан самарали
файдаланиш

МАВЗУСИДАГИ

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

БАЖАРДИ: “Иқтисодиёт” йўналиши 4-курс 1-гурух талабаси Султонов Довронбек
Абдулхошимович _____
(имзо)

ТАСТАХАТЧИЛАР: “Иқтисодиёт” кафедраси доценти, и.ф.н. Д. Нурматов _____

(имзо)

“Иқтисодиёт” кафедраси ассистенти А. Анафияев _____

(имзо)

ТАЎРИЗЧИЛАР: 1 “Джи Эм Ўзбекистон” ЁАЖнинг асосий воситалар ҳисоби

ҳисобчи раҳбари:

Ж.. Ибрагимов

2. “Уз Тонг Хонг” қўшма корхонасининг
бош ҳисобчиси:

Ш. Даминов

АНДИЖОН-2010й.

Андижон муҳандислик иқтисодиёт институти
“Иқтисодиёт” йўналиши 4 – курс талабаси
Султонов Давронбекнинг “Джи Эм Ўзбекистон” ЁАЖда
“Амортизация усулларида самарали фойдаланиш”
мавзусидаги битирув малакавий ишига

ТАҚРИЗ

Хозирги жаҳон молиявий-иқтисодий инқироз шароитида ҳар би корхона самарали фаолият юритиши учун мавжуд ресурслардан самарал фойдаланиши керак. Корхонанинг амортизация харажатлари махсуло таннархига кирувчи асосий харажатларидан бири, асосий фондлар даражас махсулотнинг сифатига катта таъсир этади. Корхона ихтиёридаги асоси воситалар, уларнинг таркибини ўрганиш, уларга амортизаци харажатларининг ҳисоблаш усулларида самарали фойдаланиш муҳи аҳамият касб этади. Шу сабабдан ҳам танланган мавзу корхона учу аҳамиятли.

Битирувчи Султонов Давронбек томонидан тайёрланган ушбу битиру малакавий ишининг таркиби қуйидагича: кириш, 3 та боб, хулоса в иловалар.

Ишнинг кириш қисмида мавзунинг ҳозирги кундаги долзарблиги ишнинг объекти, ишнинг олдига қўйилган мақсад ва вазифалар кўрсатилган.

Биринчи бобда амортизациянинг иқтисодий моҳияти, асоси фондларнинг моддий эскиришини ҳисоблаш усуллари, амортизаци харажатлари ҳисоблаш турлари назарий жиҳатдан ўрганилган.

Иккинчи бобда “Джи Эм Ўзбекистон” ЁАЖнинг техник иқтисоди кўрсаткичлари, асосий фондлар ҳисоби ва уларга амортизация ҳисобла тахлили, амортизация харажатлари таркиби тахлили бухгалтерия ҳисоби бўлими фаолиятидан келиб чиқиб атрофлича тахлил қилинган.

Ишнинг учинчи бобида асосий фондларни янгилашда амортизаци усулларида самарали фойдаланиш йўллари, модернизация ва реконструкци жараёнида корхонанинг ички инвестицияларини ошириш истиқболлари ёритилган.

Хулоса қисмида эса тайёрланган иш бўйича умумий хулоса қилини корхона фаолиятини яхшилаш бўйича амалий таклифлар берилган.

Битирувчи Султонов Давронбек ушбу ишни тайёрлаш давомид ўзининг меҳнатсеварлигини, ҳаракатчанлигини, маъсулиятлилигини намоё килди. Хулоса қилиб айтганда ушбу ишни Яқуний Давлат Аттестаци Комиссияси олдида ҳимоя қилишга тайёр деб ҳисоблаймиз.

“Джи Эм Ўзбекистон” ЁАЖ асосий
воситалар бўлинмаси бошлиғи



Ж.Ибрагимов

Андижон муҳандислик иқтисодиёт институти
“Иқтисодиёт” йўналиши 4 – курс талабаси
Султонов Давронбекнинг “Джи Эм Ўзбекистон” ЁАЖда
амортизация усулларида самарали фойдаланиш”
мавзусидаги битирув малакавий ишига

ТАҚРИЗ

Хозирги жаҳон молиявий-иқтисодий инкироз шароитида ҳар бир корхона мавжуд ресурслардан самарали фойдаланиши, ўзининг ички инвестиция имкониятларидан самарали фойдаланиш керак. Корхонанинг амортизация харажатлари маҳсулот таннархига кирувчи асосий харажатларидан бири, асосий фондлар даражаси маҳсулотнинг сифатига катта таъсир этади. Корхона ихтиёридаги асосий воситалар, уларнинг таркиби тахлилини ўрганиш, уларга амортизация харажатлар усулларида самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабдан ҳам танланган мавзу корхона учун аҳамиятли.

Битирувчи Султонов Давронбек томонидан тайёрланган ушбу битирув малакавий ишининг таркиби қуйидагича: кириш, 3 та боб, хулоса ва иловалар.

Ишнинг кириш қисмида мавзунинг ҳозирги кундаги долзарблиги, ишнинг объекти, ишнинг олдига қўйилган мақсад ва вазифалар кўрсатилган.

Биринчи бобда амортизациянинг иқтисодий моҳияти, асосий фондларнинг моддий ескиришини ҳисоблаш усуллари, амортизация харажатлари ҳисоблаш усуллари назарий жиҳатдан ўрганилган.

Иккинчи бобда “Джи Эм Ўзбекистон” ЁАЖнинг техник иқтисодий кўрсаткичлари, асосий фондлар ҳисоби ва уларга амортизация ҳисоблаш тахлили, амортизация харажатлари таркиби бухгалтерия ҳисоби бўлими фаолияти асосида таҳлил қилинган.

Ишнинг учинчи бобида асосий фондларни янгилашда амортизация усулларида самарали фойдаланиш йўллари, модернизация ва реконструкция жараёнида корхонанинг ички инвестицияларини ошириш истиқболлари ҳақида сўз юритилган.

Хулоса қисмида эса тайёрланган иш бўйича умумий хулоса қилиниб, корхона фаолиятини яхшилаш бўйича амалий таклифлар берилган.

Хулоса қилиб айтганда тайёрланган битирув малакавий иши ўзининг мазмуни ва ҳажмига кўра талабга жавоб беради. Хулоса қилиб айтганда ушбу ишни Якуний Давлат Аттестация Комиссияси олдида ҳимоя қилишга тайёр деб ҳисоблаймиз.

“Уз Тонг Хонг” қўшма корхонасининг
бош ҳисобчи



Ш.Даминов

Кирини	2
I BOB. Korxonada amortizatsiya usullaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari	6
1.1. Amortizatsiyaning iqtisodiy mohiyati.....	6
1.2. Asosiy fondlarning moddiy eskirishini hisoblash usullari.....	15
1.3. Amortizatsiya harajatlarini hisoblash usullari.....	19
II BOB “GM-O‘zbekiston” YoAJ faoliyati va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili.....	33
2.1. Texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili.....	33
2.2. Asosiy fondlar hisosbi va ularga amortizatsiya hisoblash tahlili.....	44
2.3. Amortizatsiya harajatlari tarikibi tahlili.....	46
III BOB Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida “GM-O‘zbekiston” qo‘shma korxonasida amortizatsiya usullaridan samarali foydalanish yo‘llari.....	50
3.1. Asosiy fondlarni yangilashda amortizatsiya usullaridan samarali foydalanish yo‘llari.....	50
3.2. Modernizatsiya va rekonstruksiya jarayonida korxonaning ichki investitsiyalarini oshirish	55

istiqbollari.....	
Xulosa.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	71
Ilovalar.....	

Kirish

Ishlab chiqarishda qatnashayotgan asosiy fondlar vaqt o'tishi natijasida moddiy va ma'naviy eskiradilar. Bunda korxonalarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish talab etiladi. Asosiy fondlarni modernizatsiya qilishni ichki investitsiya manbalriga amortizatsiya zahiralarini va korxonaning foydasi kiradi. Shuning uchun ham asosiy fondlarni modernizatsiya rekonstruksiya qilish amortizatsiya harajatlarini o'zni muhim hisoblanadi. Korxonaning asosiy fondlarining qoplanishi va yangi texnika-tehnologiyani joriy qilish uchun amortizatsiya harajatlari jamg'arilib boriladi va jamg'arilgan zahira orqali amalga oshiriladi.

“Korxonalarni modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliy lashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir”.¹

Hozirda mamlakatimizning ko'plab korxonalaridagi muammo eski texnologiyalardan foydalanayotgani va bu o'z navbatida esa mahsulot sifatining pasayishi, uning tannarxining oshib ketishiga olib kelmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday mahsulotlar raqobatbardoshligini yo'qotmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun korxonalarga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish talab etiladi. Fan-texnika tarqqiyoti tufayli ishlab turgan mashina asbob-uskunalarini ma'naviy eskirishini tezlashib borishi amortizatsiya usularidan samarali

¹ I.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. T.: “O'zbekiston”—2009 yil 32-bet.

foydalanishni talab etmoqda. Amortizatsiya harajatlari korxona ichki investitsiya manbasi ekanligi uning bozor iqtisodiyoti, ayniqsa, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida korxonalarda muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Amortizatsiya harajatlari korxonaga jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida asosiy fondlarning moddiy va ma'naviy eskirishi va ularga ajratilayotgan amortizatsiya harajatlarini proporsional bo'lishi muhimligini ko'rsatmoqda.

“Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi”².

Prezidentimiz ushbu ma'ruzasida aytib o'tganidek korxonalarimizni ichki investitsiya hisobidan modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash vazifasini amalga oshirish uchun amortizatsiya harajatlarini hisoblashning teshlashtirilgan usullaridan ham samarali foydalanish zarur. Chunki amortizatsiya harajatlari faqat hisobga olinadi (ya'ni asosiy vosita sotib olishda qilingan harajatlarni taqsimlash) va ichki investitsiyaning asosiy manbalaridan biridir. Hozirda korxonalarimizda asosan soliq kodeksi tavsiya qilgan to'g'ri chiziqli usuldan foydalanmoqdalar. Hozirda jahon amaliyotida tezlashtirilgan usullaridan keng foydalanilmoqda, chunki bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Bu esa asosiy fondlarning ma'naviy jihatdan eskirishini tezlashtirmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi – ishlab chiqarish korxonalarida amortizatsiya jarayonlarini o'rganib, uning tezlashtirilgan usullaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi talab qilinadi:

- Amortizatsiya ajratmasining iqtisodiy mohiyatini ochib berish;

² Каримов И.А. «Асосий вазифамиз – ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи. 2010 йил 30 январь, №21.

- Asosiy fondlarning moddiy eskirishini hisoblash usullarini yoritib berish;
- Amortizatsiya ajratmasi harajatlarini hisoblash metodikasini takomillashtirish.
- Korxonaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
- Korxonaning asosiy fondlar hisobi va ularga amortizatsiya hisoblashni tahlil etish.
- Korxonaning amortizatsiya harajatlari tarkibi tahliliga baho berish.
- Asosiy fondlarni yangilashda amortizatsiya usullaridan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
- Modernizatsiya va rekonstruksiya jarayonida korxonaning ichki investitsiyalarini oshirish istiqbollarini rejalashtirish.

Ushbu mavzuni tanlashimdan maqsad, hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida korxonalarimizni o'z ichki imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish imkoniyatlarini ochib berish, asosiy fondlarning turiga va ishlab chiqarishga bo'g'liqligiga qarab amortizatsiya usullarini qo'llashni, hususan tezashtirilgan amortizatsiya usullardan foydalanish evaziga asosiy fondlarni tezroq qoplash va tezroq yangilash imkoniyatlarini yaratib berishini ochib berish taklif va tavsiyalar berish. Amortizatsiya hisoblashning har qaysi usulida bir xil summa amortizatsiya qilinadi, lekin har bir usulda yillarga hisoblangan amortizatsiya harajatlarining miqdori turlicha bo'lganligi bu summalariga inflatsiyaning ta'siri turlichaligi uchun qaysi usulni tanlash ahamiyati oshib boradi. Korxona amortizatsiya harajatlarini inflatsiya ta'siridan to'la yo'qotib bo'lmaydi, ammo bu yo'qotilgan qiymatni kamaytirish uchun alternativ variantlar mavjud. Amortizatsiya usulini tanlash va hisoblash bugalter vazifasi, lekin iqtisodchi korxonaning barcha sohalaridagi iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilishi va korxonaning faoliyatiga ta'sir qiluvchi barcha iqtisodiy moliyaviy munosabatlarni qamrab olgan holda tahlil olib borishi zarur. Korxona faoliyatiga ta'sir qiluvchi ko'zga ko'rinmas ta'sirlar ustida ham tahlil olib borish iqtisodchining vazifasidir. Amortizatsiyaga inflatsiyaning ta'siri bugalteriyada o'rganilmaydi, chunki kelajakdagi inflatsiyaning miqdori aniq emas. Bunday hollarda bugalteriyada inflatsiya inobatga olinmaydi. Shuning uchun ham

iqtisodchining vazifasi bugalteriya qoidalarini buzmaganda inflatsiyaning amortizatsiya harajatlariga ta'sirini aniq hisob-kitoblar asosida bugalterga o'z takliflarini berishi talab etiladi. Shuningdek hozirda asosiy fondlarni ma'naviy eskirishni oldini olish va yangi texnologiyalarni joriy qilishda amortizatsiya usullaridan samarali foydalanish bo'yicha ham iqtisodchi zarur takliflar ishlab chiqishi talab etilmoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ishida korxonada asosiy fondlarni moddiy va ma'naviy eskirishini, uni hisoblash, amortizatsiya harajatlarini hisoblashga inflatsiya ta'sirini, modernizatsiya va rekonstruksiya qilishdagi roli, ularning korxona faoliyatiga ta'sirini ochib berishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

1-bobda asosiy fondlarni moddiy va ma'naviy eskirishi, ularni hisoblash, amortizatsiya harajatlarini hisoblashning nazariy asoslarini ochib berildi.

2-bobda "GM-O'zbekiston" YoAJning faoliyati, texnik iqtisodiy-ko'rsatkichlar tahlili, amortizatsiya ajratmalari va amortizatsiya hisoblash usullaridan foydalanish ko'rsatkichlari tahlili keltirib o'tildi.

3-bobda "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasida amortizatsiya usullaridan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotdagi qonunchilik doirasida korxonaning yangi texnologiyalarni joriy qilishda ichki investitsiya manbalaridan samarali foydalanish yo'llarini ochib berish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

I-BOB. Korxonada amortizatsiya usullaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari

1.1 Amortizatsiya va asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati

“Amortizatsiya” atamasi umuman olganda asosiy fondlarning “o’lmasligi”, ular eskirishining qoplanishini, tiklanishini bildiradi. Ishlab chiqarishdagi asosiy fondlarning eskirishini pul mablag’larini jamg’arish orqali qoplash amortizatsiya deyiladi. Binobarin, amortizatsiya fondi—eskirishni (yeyilishni) qoplash uchun mo’ljallangan pul mablaglaridir. U amortizatsiyaga ajratilgan mablag’lar hisobidan tarkib topadi. Amortizatsiya—mehnat vositalarining eskirishini qisman qoplash uchun mablag’ ajratishdir.³

Ma’lumki, ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar yemiriladi, eskiradi, asta-sekinlik bilan o’zining texnik xususiyatini, iste’mol qiymatini yo’qotib boradi, ularning qiymati esa ishlab chiqarilayotgan tovarlarga o’tkazilib boriladi.

Mashina, jihozlar foydalanish jarayonida yeyiladi, uning bahosi arzonlashadi. Asosiy fondlar qiymatining eskirish summasi amortizatsiya fondiga borib tushadi.

Amortizatsiya fondidan vositalarning ma’lum qismini kapital ta’mirlash davomida ularni qisman tiklash maqsadida foydalaniladi. Bu sharoitda yo’qotilgan qiymatni qisman qoplash sodir bo’ladi. Asosiy fondlarning xizmat muddati tugagandan keyin, ular butanlay eskiradi, iste’mol qiymatini yo’qatadi, jamg’arilgan amortizatsiya fondi yangi mehnat vositalarini sotib olish imkonini beradi.

Fan-tehnika taraqqiyoti sharoitida asosiy fondlar ma’naviy jihatdan juda tez eskiradi, jismoniy eskirishi bilan esa, iste’mol qiymatini yo’qotib boradi.

Binobarin, har bir ho’jalikda amortizatsiya ajratiladi. Aytib o’tilganidek, asosiy vositalar o’z qiymatini tayyor mahsulotga o’tkazib boradi. Mahsulot sotilgandan so’ng bu qiymat xo’jalikka pul shaklida qaytadi va amortizatsiya uchun o’tkaziladi. Bu mablag’lar kapital remont va eskirgan asosiy vositalarni to’la tiklash uchun sarflanadi. Har yillik amortizatsiya ajratmalarining miqdori amortizatsiya me’yorlariga binoan asosiy vositalarning balans qiymatidan foizlarda ajratiladi.

³ Додобоев Ю, Худойбердиев А. “Корхона иктисодиёти” Андижон “Андижон Нашриёти”—2002 йил.

Asosiy vositalarning eskirish summasi qanchalik ko'p bo'lsa, ularning qoldiq qiymati shunchalik kam bo'ladi, yoki aksincha bo'ladi. Asosiy vositalarning eskirish summasiga qarab korxonadagi mavjud asosiy vositalarning yangi yoki eskiligiga baho berish mumkin.

Eskirish summasini hisoblashni aniqlashtirish uchun yillik amortizatsiya summasi asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan foiz hisobida aniqlab olinadi. Buning uchun yillik amortizatsiya summasini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lib yuzga ko'paytirish kerak. Shu yo'l bilan to'pilgan raqam asosiy vositalarning amortizatsiya me'yori deyiladi. Asosiy vositalarni to'la tiklash va kapital ta'mirlash uchun alohida amortizatsiya me'yorlari belgilanadi.

Har oyda ishlab chiqarish harajatlari o'tkazib turiladigan har oylik amortizatsiya summasi yillik amortizatsiya summasini o'n ikki oyga bo'lish orqali topiladi. Amortizatsiya ajratmalari har oyda oldingi oy uchun hisoblangan amortizatsiya ajratmalari miqdori bilan belgilanadi.

Asosiy vositalar o'z balans qiymatini ishlab chiqarish va muomala harajatlari to'liq o'tkazmasdan chiqariladigan bo'lsa, farqi korxona tassarufida qolgan foyda hisobidan qoplanadi. Amortizatsiya fondining ajratmalari mahsulot sotishdan tushgan pul mablag'i tarkibida xo'jalikning hisob-kitob raqamiga tushadi.

Bu mablag'lar faqat kapital xarajatlarni mablag' bilan ta'mirlash uchun sarflanadi. To'la tiklash uchun ajratilgan amortizatsiya summasi xo'jalikning fan va texnikani rivojlantirish fondiga o'tkaziladi.

Amortizatsiyani hisoblashda bekor turgan ob'yektlar bo'yicha ajratilgan amortizatsiya summasini mahsulot va bajarilayotgan ish qiymatiga kiritish tavsiya etiladi.

Asosiy vositalarning qiymati qoplanib bo'lgadan so'ng ularni turli xil shakllarida asosiy fondlardan samarali foydanish iqtisodiy jihatdan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy fondlarning samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, asosiy vositalar bo'yicha hisoblanadigan amortizatsiya va eskirish summalarining holatini

ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir, chunki ushbu ko'rsatkichlarga asoslanib, korxonalarda asosiy vositalardan foydalanish darajasiga baho beriladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

- 1) er uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob'ektlar (suv, er osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- 2) maxsuldor chorva mollari;
- 3) kutubxona fondi;
- 4) muzey qimmatliklari (muzey ashyolari);
- 5) qonun xujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- 6) arxitektura yodgorliklari;
- 7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, sayilgoxlar, xiyobonlar, maxalliy davlat xokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;
- 8) qiymati ilgari to'liq chegirilgan mol-mulk;
- 9) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar.⁴

Amortizatsiya jarayoni asosiy fondlar qiymatining qisman ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ularning xizmat muddati davomida o'tkazib borilishini va kelgusida bu qiymatning fondlar iste'molini qoplashga sarflanishini bildiradi.

Asosiy fond qiymatining mahsulot tarkibiga o'tkazilgan qismi ishlab chiqarish sohasini tark etib, muomala sohasiga kirib boradi.

Mahsulot sotilgandan so'ng ("T-P" aylanganda) asosiy fond qiymatiga o'tkazilgan pul summasi amortizatsiya fondiga o'tkaziladi, u yerda to'liq to'planib, birlamchi qiymatini tashkil etadi (eskirgan va foydalanib bo'lingan asosiy fondlardan tashqari). Bu amortizatsiya fondi (to'plangan pullar summasi) yangi asosiy fond sotib olish uchun ishlatiladi, ya'ni asosiy fondlar tiklanadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi

Mahsulot qiymatiga o'tkaziladigan qiymat kattaligi, birinchidan, asosiy fondlar birlamchi qiymati bilan aniqlanadi, chunki birlamchi qiymat qanchalik katta bo'lsa, asosiy fondlarning o'tkaziladigan qismi shuncha ko'p bo'ladi.

Ikkinchidan, bu kattalik asosiy fondlar turi bilan aniqlanadi, chunki misol uchun, sanoatda binolarning me'yoriy xizmat qilish muddati 30-50 yilni tashkil etadi (ishlab chiqarish turidan kelib chiqqan holda), mashina va jihozlarning me'yoriy ishlash muddati esa 3-5 yildan 15-20 yilgacha bo'ladi.

Uchinchidan, mahsulotga o'tkaziladigan asosiy fondlar qiymati kattaligi ishlab chiqarish tarmog'i turi bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari amortizatsiya aniq bir darajada me'yoriy funksiyani ham bajaradigan asosiy fondlardan iloji boricha to'liq foydalanish imkonini yaratadi: jihozning ishlashi qanchalik uzoq bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish shuncha ko'p bo'ladi va asosiy fondlar qiymati shunchalik tez o'tkaziladi. Bu ma'naviy eskirish natijasida amortizatsiya bo'lmay qolishining oldini oladi va korxonaning bozor sharoiti uchun zarur bo'lgan yo'qotishlarini kamaytiradi.

Amortizatsiya me'yori asosiy fondlar qiymatini qoplashning yillik foizini tashkil etadi.

Ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, jihoz rejimi va ishning smenaligi, ish bilan bandlik darajasi va bajarilgan ishlarning jismoniy hajmi, atrof muhit sharoiti, ob'yektning geografik joylashuvi va boshqa omillardan kelib chiqqan holda amortizatsiya me'yori ko'payishi mumkin.

Agar, misol uchun, mashina va jihozlarning amortizatsiya me'yori ularning 3 smenada ishlatilishidan kelib chiqqan holda o'rnatilgan bo'lsa, haqiqatda esa 2 smenada ishlasa, u holda kamaytirib to'g'rilangan koeffitsiyentga ko'paytiriladi. Aksincha mashina va jihozlar belgilangan ikki smena o'rniga uch smena ishlayotgan bo'lsa, u holda yuqori koeffitsiyentga ko'paytiriladi.

Amortizatsiya me'yorlari iqtisodiy jihatdan asoslangan va asosiy fondlarning o'z vaqtida qoplashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ularni hisoblashda asosiy

fondlarning xizmat muddatini iqtisodiy to'g'ri aniqlash uchun quyidagi omillarni inobatga olgan holda bajariladi;

- asosiy fondlarning chidamliligi;
- ma'naviy eskirish (birinchi va ikkinchi tur);
- jihozning balansi;
- kapital ta'mirlash va yangilanish ehtimolligi;

Korxonada hisoblash texnikasi vositlarini, materiallarining, priborlarining va qurilmalarning yangi progressiv turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, mahsulot eksportini kengaytirish uchun qo'llaniladigan asosiy fondlarga nisbatan amortizatsiyaning tezlashtirilgan usulini qo'llash mumkin (bunda , me'yorlar davlat moliya organi bilan kelishiladi).⁵

Tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llashda, muayyan inventar ob'yektini uchun belgilab qo'yilgan tartibda amortizatsiya me'yori 2 martadan ortiq bo'lmagan miqdorgacha oshirilishi mumkin.

Odatda, tezlashtirilgan amortizatsiya usuli quyidagi turdagi mashinalar, jihozlar va transport vositalariga tegishli emas:

- me'toriy xizmat muddati 3 yildan iborat bo'lgan mashinalar, jihozlar va transport vositalarga;
- samolyotsozlik parkining ayrim turdagi jihozlariga, ularning me'yoriy xizmat muddati samolyot va vertolyotlarning uchish soatiga bog'liq bo'lsa;
- avtomobilning harakat tarkibiga, agar amortizatsiya avtomashina qiymatiga nisbatan olinsa-da, haqiqiy 1000km yurilgan yo'lga olib borilsa.
- Noyob texnika va jihozlar, agar ular aniq bir turdagi tajribalar uchun mo'jjallangan bo'lsa.⁶

⁵ Додобоев Ю, Худойбердиев А. "Корхона иктисодиёти" Андижон "Андижон Нашриёти"—2002 йил.

⁶ Додобоев Ю, Худойбердиев А. "Корхона иктисодиёти" Андижон "Андижон Нашриёти"—2002 йил.

Amortizatsiya—(lotincha amortisatio-qoplash), asosiy kapital (fondlar) amortizatsiyasi—asosiy kapital (mashina va mexanizmlar, jihozlar va uskunalar, binolar va inshootlar)ning ekspluatatsiya jarayonida eskirishi va ayni paytda ular qiymatining muayyan davr davomida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotga o'tib borishi.⁷

Ishlab chiqarishda qatnashayotgan asosiy fondlar yillar o'tishi bilan eskiradi va o'z sifatini yo'qata boradi: jismoniy va ma'naviy jihatdan eskiradi.


Jismoniy eskirish deganda, asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi natijasida butunlay yoki qisman to'zishi, yemirilishi tushuniladi. Ma'lum vaqt o'tgach, jismoniy jihatdan butunlay yoki qisman yaroqsiz bo'lib qolgan mexnat qurollarini yangisiga almashtiriladi yoki bo'lmasa modernizatsiya qilinadi yoxud ayrim qismlari kapital ta'mirlanadi. Jismoniy eskirish natijasida asosiy fondlarning qiymati yo'q bo'lib ketmaydi, balki tayyorlangan mahsulot qiymatiga ko'chadi. Korxonalarda faqat ishlayotgan mashina va asbob-uskunalarгина emas, balki bekor turganlari xam eskiradi (emiriladi). Mashina va asbob-uskunalarining jismoniy eskirish darajasi ularning xizmat muddati va to'zish (emirilish) darajasiga nisbatan aniqlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti va mexnat unumdorligi o'sishi tufayli ishlab turgan mashina va asbob-uskunalar qiymatining kamaytirilishi, nisbatan unumli va tejamli yangi mashinalarning va asbob-uskunalarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida ishlatilayotgan mashinalarning jismoniy eskirish muddati tugamasdan turib qadsizlanishi — asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi, deb ataladi. Ma'naviy eskirish fondlarning narxini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqishni shart qilib qo'yadi. Eskirgan asosiy fondlarni yangilari bilan almashtirish rejali ravishda eng kam mexnat va mablag sarf qilishga harakat qilinadi.

1.1.1-rasm.

⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси 1 жилд —Т.: “Давлат илмий нашри”, 2000 йил.—288 ,бет

Asosiy fondlarning eskirish turlari.⁸



Ayniqsa hozirgi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida korxonalarda asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi korxonalarning mahsulotlarini raqobatbardoshligini yo'qotishiga sabab bo'lmoqda, chunki ma'naviy eskirgan texnologiyada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi yuqori bo'ladi va uning narxini oshishiga olib keladi. Asosiy vositalar moddiy va ma'naviy eskiradi. Moddiy eskirish mexnat vositalaridan foydalanish jadalligi va ularning korxonada ishlatilgan muddatlari bilan belgilanadi. Ma'naviy eskirish fan va texnika taraddiyoti natijasida mexnat vositalarining arzonlashuvi xamda iqtisodiy jihatdan mukammal bo'lgan yangi mexnat vositalarining yaratilishi va joriy qilinishi bilan bog'liq.

⁸ Е. Х. Махмудов. "Корхона иктисодиёти" Т.:— "Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти", 2004 йил. 112 бет.

Amortizatsiya me'yori asosiy fondlar turiga, xizmat qilish muddatiga ko'ra tabaqalashtiriladi. Amortizatsiya qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga kiritib boriladi. Mahsulot sotilgach, bu qiymat amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida eskirgan jixozlar o'rniga yangisini sotib olish uchun zarur bo'lgan mablaglar summasi tarzida jamgariladi.

Amortizatsiya ajratmalari — maxsulot tannarxiga kiritiladigan asosiy fondlar amortizatsiyasi summasi; asosiy fondlarni qisman tiklash (kapital ta'mir va yangilash) va to'liq tiklash (renovatsiya) fondlarini yaratishga xizmat qiladi. Amortizatsiya ajratmalari me'yorlari asosiy fondlar qiymatiga mutanosib, ya'ni taxminiy foydalanish muddatiga tekis taqsimlanishi yoki kamayib boruvchi balans usulida — jadallashtirilgan tartibda xisoblanishi mumkin. Jadallashtirilgan tartibda foydalanishning birinchi yilida amortizatsiya me'yori 2 marta oshiriladi, ikkinchi yili qoldiq qiymatining 20 foizi middorida va shu tarzda ajratmalar nazarda tutiladi va bu ish shu tarzda davom ettiriladi. Natijada asosiy fondlar diymatining $\frac{2}{3}$ qismi ular xizmat muddatining yarmidayoq amortizatsiyalanadi. Amortizatsiya me'yorlarining pasaytirilishi asosiy fondlarning yangilanishini sekinlashtiradi, oshirilgan me'yorlar maxsulot tannarxini qimmatlashtiradi. Shu sababli amortizatsiya ajratmalari davlat tomonidan tartibga solinadi. Amortizatsiya ajratmalari ta'minlanishi kerak bo'lgan asosiy shart asosiy fondlar eskirishining to'liq qoplashi va ularning takror yaratilishiga erishishdir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat amortizatsiya ajratmalari normativlarini belgilab, jadallashtirilgan amortizatsiya orqali tadbirkorlarga soliqqa tortiladigan foyda summasini kamaytirishga imkoniyat yaratib beradi.

Ayni paytda asosiy fondlar qiymatini xisobdan chiqarishni tezlatish tadbirkorni asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi bilan bog'liq extimoli bo'lgan zarar ko'rishdan saqlaydi, yangi texnika va texnologiyani tezroq joriy etishga rag'batlantiradi.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy fondlarning o'zini yoki uning ba'zi qismlarini yangilash vaqti kelguncha shu shaklda ma'lum fondga jamg'arilib

turiladi va bu fondni amortizatsiya fondi deb ataydilar. Demak, amortizatsiya fondi — amortizatsiya ajratmalari xisobiga shakllanadigan maxsus fonddir.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy aktivlar amortizatsiyasi degan tushuncha xam mavjud.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagalar kiradi:

—asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki qiymatidan kelib chidib xisoblangan amortizatsiya ajratmalarining summasi (xisoblangan eskirish);

—lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, jadallashtiriladigan amortizatsiya summasi.⁹

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirishi, har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan natijali foydalanish muddatidan (biror xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ekt muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Natijali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish me'yori 5 yilga hisoblanadi.

⁹ Ортиков А. “Саноат иктисодиёти” Т.:— “ Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамгармаси нашриёти”, 2004 йил. 112 бет.

1.2 Asosiy fondlarning moddiy eskirish usullari.

Moddiy eskirish—mashina va uskunalarning ishlab chiqarish jarayonida foydalanish jarayonida uskunalarning qismlari, uzel, konstruksiyalari, shakli, o'g'irligi va ustki qismlarining o'zgarishidir. Moddiy eskirish darajasiga asosiy quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- mashina va uskunarlar tayyorlangan material;
- mashina va uskunalarning ishlash rejimi;
- asosiy fondlarga texnik xizmat ko'rsatish darajasi;
- tashqi muhit (chang, namlik va boshqalar).

Asosiy fondlarning jismoniy eskirishi me'yoriy va avariya (halokatli, qaltis) bo'ladi. Me'yoriy eskirish asosiy fondlarning uzoq muddat ishlashi davomida o'z xususiyatini tabiiy yo'qotishidir.

Halokatli eskirish yuz berganda asosiy fondni qayta tiklash imkoniyati bo'lmaydi va yaroqsiz holga kelib qoladi. Asosiy fondlarni jismoniy eskirishini qiymatini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi;

1. Ekspert usullar:

- foydalilik muddati usuli;
- holatini ekspert baholash.

2. Iqtisodiy-statistik usullar:

- daromadlilikni pasayishi usuli;
- tamirlash davri bosqichi.

3. Tajriba-analitik usullar:

- istemol xususiyatining pasayishi;
- elementlar bo'yicha hisob-kitobi;
- to'g'ri usul.¹⁰

¹⁰ К. Б. Ганиев. "Экономика предприятия: рыночная стоимость машин и оборудования" —Т.: "Издательство Национального общества философов Узбекистана", 2006. —39с.

Ekspert usullar-mashina va uskunalarning ishlab chiqarish va eksplutatsiya jarayoni mutaxassisining aktivning amaldagi holati haqidagi fikri va xulosasi asoslanadi.

Foydalilik muddati-usulida asosiy fondning yana qancha muddat davomida foydalanish mumkinligini yetarli darajada aniqlikda aniqlash imkoniyatini yaratib beradi. Foydali ish muddati—mashina va uskunalarning uning jismoniy holatini, foydalilik darajasini, uning foydali ish muddatiga nisbatan aniqlaydi. Asosiy fondlarning foydali ish muddatini bilgan holda quyidagi formula orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

$$T_{\text{эф}} = T_{\text{н}} - T_{\text{оет}}$$

Bu yerda:

$T_{\text{н}}$ —asosiy fondlarning normativ foydalanish muddati;

$T_{\text{оет}}$ —ekspert tomonidan aniqlangan asosiy fondning keyingi foydali ish muddati.

Yuqoridagi formuladan kelib chiqqan holda jismoniy eskirish quyidagicha aniqlanadi.

$$\Phi_{\text{н}} = T_{\text{эф}} / T_{\text{н}}$$

Ushbu usulni hozirda bizning korxonalarimizga ham qo'llash imkoniyati mavjud. Buning uchun asosiy ish asosiy fondning qolgan foydali ish muddatini aniqlash talab etiladi. Bunda korxonaning asosiy fondlarini yangilash kerak bo'lgan muddatni aniqlashga imkoniyat beradi.

Asosiy fondlarni holatini ekspert baholash-ekspert mutahassislar tomonidan oldindan aniqlangan mashina va uskunalarning jismoniy eskirish koeffitsiyentlariga asoslangan tarzda aniqlanadi. Bu ma'lumotlar yanada aniqroq bo'lishi uchun bir necha ekspertlar jalb qilinadi. Bunda jismoniy eskirish quyidagicha aniqlanadi:

$$\Phi_{\text{н}} = \sum \Phi_{\text{н}} * a_i$$

Bu yerda:

$\Phi_{\text{н}}$ —jismoniy eskirish darajasi;

a_i —ekspertlar tomonidan belgilangan koeffitsiyent.

Bu usul qo'llanish uchun ekspertlar tomonidan aniqlangan koeffitsiyentlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy-statistik usul mashina uskunalar haqida belgilangan davr uchun aniq texnik-iqtisodiy eksplutatsiya ko'rsatkichlar bo'lganda qo'llaniladi.

Bu usul hisoblash murakab jarayondir. Ushbu usulni yirik va moliyaviy baquvvat korxonalar qo'llash maqsadga muvofiq, chunki ushbu usulni to'g'ri hisoblash mutahassis zarur bo'ladi.

Daromadlilikni pasayishi usuli jismoniy eskirishning o'sib borishiga proporsional ravishda undan olinayotgan daromadning pasayishini anglatadi. Jismoniy eskirish darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Phi_H = (D_0 - D_1) / D_0$$

D_0 —yangi uskunani eksplutatsiyasi natijasidan olingan sof daromad;

D_1 —joriy vaqt oralig'ida olingan sof daromad.

Ta'mirlash davri bosqichi usulida mashina va uskunalar eksputatsiya jarayonida jismoniy eskirishi oshib borgan uning istemol xususiyati pasayib boradi. Hisob-kitoblarni osonlashtirish uchun faqat ta'mirlash davridagi kapital ta'mirlashlarni hisobga olamiz, istemol xususiyati chiziqli ko'rinishda bo'ladi.

Tajriba analitik usuli mashina va uskunalarining tajribadan o'tkazish va baholash uchun uning texnik-iqtisodiy, texnologik ko'rsatkichlaridan foydalanadi.

Istemol xususiyatining pasayishi mashina va uskunalarining jismoniy eskirishiga bo'g'liqligini ifodalaydi. Umumiy istemol xususiyati ΠC_0 alohida istemol xususiyatlarining ΠC_i yig'indisi sifatida ifodalanadi.

$$\Pi C_0 = \sum \Pi C_i \quad \sum a_i = 1$$

Bu yerda eskirish quyidagicha aniqlanadi.

$$\Phi = \sum \Delta \Pi C_i a_i$$

Elementlar bo'yicha hisob-kitobi usulida mashina va uskunalarining alohida elementlari bo'yicha eskirish hisoblanib, ulardan olingan natijalar jamlanib

qiymatdagi ulushiga nisbatan aniqlanadi. I-elementning eskirishi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{ip}=f_i (C_i/C_H)(T_i/T_H)$$

Bu yerda:

f_i —i-elementning eskirish darajasi;

C_i, C_H —i-elementning, mashina va uskunalarning qiymati;

T_i, T_H —i-elementning, mashina va usnalarning foydali ish muddati;

Ob'yektning umumiy eskirishi elementlarning eskirishlarini yig'indisi ko'rinishida aniqlanadi.

$$\Phi_H=\sum F_{ip}$$

To'g'ri usul yangi mashina va uskunaning qiymati C_H va eskigan uskunaning yangi holatiga keltirish uchun zarur harajatlar **3** yordamida aniqlanadi. Eskirish quyidagicha aniqlanadi.

$$\Phi=3/C_H$$

1.3Amortizatsiya harajatlarini hisoblash usullari.

Ma'lumki, asosiy vositalarni ishlab chiqarish jarayonida uzoq, muddat mobaynida ishlatilishi, ularni ana shu muddat mobaynida tabiiy kuchlar ta'siri ostida jismoniy, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida esa, ma'naviy eskirishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan asosiy vositalarning qiymati ularni ana shu taxmin qilinayotgan ishlatish muddati mobaynida, ular foyda keltiradigan hisobot davri davomida teng ravishda taqsimlanishi (xisobdan chiqarilishi) kerak. Bu jarayon eskirish deb ataladi.

Asosiy vositalarning eskirish miqdorini xisoblashga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular asosiy vositalarning:

- boshlang'ich qiymati;
- qoldiq qiymati (tugatish qiymati);
- eskirish xisoblanadigan qiymati;
- taxmin qilinayotgan foydalanish muddati.

Asosiy vositalarga eskirishni xisoblash turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Solik Kodeksida asosiy vositalarga eskirish xisoblashning bir tekisda xisobdan chiqarish usuli tavsiya qilingan bo'lsada, amaliyotda uning boshqa usullarini xam qo'llash mumkin. Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarga eskirish xisoblashning quyidagi usullari qo'llaniladi:

1. Bir tekisda (chiziqli) eskirish xisoblash usuli;
2. Bajarilgan ish xajmiga mutanosib ravishda eskirishni xisoblash (ishlab chiqarish) usuli;
3. Tezlashtirilgan eskirishni xisoblash usullari:
 - a) kamayib boruvchi qoldiq usuli;
 - b) kumulyativ (sonlar yigindisi) usuli.

Asosiy vositalarga eskirish xisoblashning yuqoridagi sanab o'tilgan usullari mazmuni bilan batafsil tanishib chiqamiz.

1. Bir tekisda (to'g'ri chiziqli) eskirishni xisoblash usuli.

Bu usulda ob'ekt qiymatining eskirish xisoblanayotgan qismi xarajat xisob varaqlariga uning xizmat qilish muddati davomida bir tekisda (maromda) o'tkazib boriladi. Xar yil uchun eskirish summasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$A=(B-T)/M$$

Bu yerda:

A—1 yil uchun hisoblangan eskirish summasi;

B—asosiy fondning boshlang'ich qiymati;

T—asosiy fondning tugatish qiymati;

M—asosiy fondning foydali ish muddati.

Masalan, dastgoxning boshlang'ich qiymati 5000000 so'm, xizmat muddati besh yil, xizmat muddati oxiridagi tugatish qiymati — 500000 so'm. Bu holda har yillik eskirish summasi eskirish xisoblanadigan qiymatning 20 foizni tashkil qiladi yoki to'g'ri chiziqli xisobdan chiqarish usuliga binoan 900000 so'mni tashkil etadi, ya'ni:

$$A=(B-T)/M=(5000000-500000)/5=900000$$

Ushbu dastgoxga besh yil mobaynida eskirish xisoblashni 1.3.1-jadval orqali ko'rishmiz mumkin:

1.3.1-jadval.

To'g'ri chiziqli usulda eskirish harajatlari hisobi

(so'm xisobida)

Sana	Boshlang'ich qiymat	Yillik eskirish summasi	Jamg'arilgan eskirish summasi	Qoldiq qiymati
1-yil	5000000	900000	900000	4100000
2-yil	4100000	900000	1800000	3200000
3-yil	3200000	900000	2700000	2300000
4-yil	2300000	900000	3600000	1400000
5-yil	1400000	900000	4500000	500000

Manbaa: Formulani hisoblash uchun muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval yordamida ko'rsatilgan eskirish xisoblashdagi asosiy xususiyatlarga to'xtalsak, ularni quyidagi uchta xolatga ajratish mumkin:

birinchidan—besh yil davomida eskirish summasi xisobi bir xil;

ikkinchidan—jamg'arilgan eskirish summasi bir me'yorda ortib boradi;

uchinchidan—qoldiq qiymati qoldiq qiymatiga etmagunicha bir me'yorda kamayib boradi.

Mening fikrimcha ushbu usul asosan ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan asosiy fondlarga ushbu usulni qo'llash maqsad muvofiq hisoblanadi. Bu usulning qulayligi amortizatsiya harajatlarning asosiy fondning foydali ish muddatiga teng miqdorlarda taqsimlanishidir. Bu esa korxona harajatlarini hisob davrlarining birida ko'p ikkinchisida oz bo'lishini oldini oladi.

Bu usulning kamchiligi hozirgi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida asosiy fondlarning tez ma'naviy eskirishi oqibatida yetarli darajada qoplash va o'rmini tezlik bilan yangi texnologiya olish sekinligidir. Shuningdek asosiy fondlarning foydali ish muddatining oxiri yaqinlashganda asosiy fondning ish unumdorligining susayib ketishidir. Bu esa o'z navbatida mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi.

2. Bajarilgan ishlar xajmiga mutanosib ravishda eskirish hisoblash usuli.

Ba'zi ob'ektlarni eskirishi ularning ishlatish jadalligi bilan bog'liq xolda hisobga olinadi, bunda obyektning mavjudlik davri (vaqti) e'tiborga olinmaydi. Bu usulda amortizatsiya summasi asosiy fondning hisobot yilida ishlab chiqarayotgan mahsulot hajmiga mutanosib hisoblanadi.

Masalan, boshlang'ich qiymati 5000000 so'm, tugatish (qoldiq) qiymati 500000 so'm bo'lgan dastgoxning 5 yillik xizmat muddati mobaynida umumiy bajaradigan ish xajmi 3000000 donani tashkil qiladi. Har bir dona xisobiga to'g'ri keladigan eskirish xarajatlari summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$A=(B-T)/I=(5000000-500000)/300000=15\text{so'm 1donasiga.}$$

Bu yerda:

A—yillik eskirish summasi;

B—asosiy fondning boshlang'ich qiymati;

T—asosiy fondning tugatish qiymati;

I—asosiy fond ishlab chiqaradigan jami mahsulot hajmi.

Agar dastgoxni xizmat muddatining birinchi yili 60000 dona, ikkinchi yili 80000 dona, uchinchi yili 80000 dona, to'rtinchi yili 50000 dona va beshinchi yili

300000 dona maxsulot ishlab chiqarsa, u xolda dastgoxga xisoblangan eskirish quyidagicha bo'ladi:

$$1 \text{ yil } 60000 \cdot 15 = 900000$$

$$2 \text{ yil } 80000 \cdot 15 = 1200000$$

$$3 \text{ yil } 80000 \cdot 15 = 1200000$$

$$4 \text{ yil } 50000 \cdot 15 = 750000$$

$$5 \text{ yil } 30000 \cdot 15 = 450000$$

1.3.2.jadval

Ishlab chiqarish usulida amortizatsiya harajatlari hisobi.

(so'm hisobida)

Sana	Boshlang'ich qiymati	Bajarilgan ish hajmi (mahsulot hajmi)	Yillik eskirish summasi	Jamg'arilgan eskirish summasi.	Qoldiq qiymati
1-yil	5000000	60000	900000	900000	4100000
2-yil	4100000	80000	1200000	210000	2900000
3-yil	2900000	80000	1200000	300000	1700000
4-yil	1700000	50000	750000	375000	950000
5-yil	950000	30000	450000	450000	450000

Manbaa: Formulani hisoblash uchun muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan xisoblardan ko'rinib turibdiki, yillik eskirish summasi va bajarilgan ish birligi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Jamg'arilgan eskirish xar yili ish birligi xajmiga bog'langan xolda, o'zgarib boradi, qoldiq qiymati esa yil sayin ish xajmiga to'g'ri mutanosib ravishda qoldiq qiymatga etmaguncha kamayib boradi. Bu usulga muvofik xar bir ob'yektni taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddatini aniqlashda qo'llaniladigan ish birligi ma'lum aktivlarga mos kelishi kerak. Masalan, ishlab chiqarilgan maxsulot miqdori aniq, bir uskunaga mos kelishi kerak. Bunda ob'yektdan foydalanish soatlari miqdori boshqa uskunaga eskirish xisoblashda yaxshi ko'rsatkich bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu usulni

ob'yektdan foydali ishlatish muddati ichida fondlar qaytimi etarlicha aniqlash mumkin bo'lgan xollarda qo'llash ma'quldir.

Bu usul ko'proq ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishlaydigan asosiy vositalar uchun foydalaniladi. Ushbu usul ikki va uch smenalik ishlaydigan korxonalar uchun qulay, chunki bunda mashina va uskunalar ko'p smenali ishda tez jismoniy eskiradi. Shuning uchun ham ushbu usulni qo'llash mashina va uskunalarining jismoniy eskirishiga proporsional ravishda amortizatsiya harajatlari hisoblash mumkin. Ushbu usulning kamchiligi ishlatilmayotgan asosiy fondlar hisobga olinmaydi. Hozirgi kunda korxonalarimizning ko'pchiligi asosiy fondlarining faqat 50-60%izidan foydalanadi. Bu esa korxonaning asosiy fondlari hisoblangan eskirish darajasi asosiy fondlarning eskirish darajasidan kam bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu o'z navbatida asosiy fondlarning yangilanishi va qoplanishiga katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham bu usulni asosan asosiy fondlardan foydalanish darajasi yuqori, ko'p smenada ishlaydigan korxonalar foydalaniisa yaxshi natija olish mumkin.

3. Tezlashtirilgan eskirish xisoblash usuli

Dunyo tajribasida o'ta tezlashgan (regressiv) amortizatsiya uslidan foydalaniladi. Tarixdan ma'lumki, bu usullar rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishning harbiy tarmog'ida kelib chiqqan, chunki ularning takomillashuvidan davlat manfaatdor bo'lgan. Keyinchalik o'ta tezlashgan amortizatsiya moliyaviy resurslar manbasi bo'lib qoldi, ayniqsa elektr sanoati kabi ishlab chiqarishning progressiv tarmoqlarida bu yaqqol ko'zga tashlanadi.

Amortizatsiyaning o'ta tezlashgan usuli, amortizatsiya muddatining yarmidayoq asosiy fondlar qiymatining 60-75% ini qoplashga imkon beradi, bir tekis usuldan foydalanilganda esa 50% asosiy fondlar qiymati qoplanadi. Asosiy fondlar xizmat muddatinig ikkinchi qismida amortizatsiya kattaligi kamayadi. Tezlashtirilgan amortizatsiya usullaridan chet el tajribasida ko'proq ikki baravar me'yor va kumulyativ usul qo'llaniladi (sonlar summasi usuli).

a) sonlarning yig'indisi buyicha qiymatni xisobdan chiqarish usuli. Bu usul eskirish xisoblanadigan asosiy vositaning xizmat qilish yillari summasi orqali

aniqlanadi va bu summa xisoblash koeffitsientida maxraj bo'lib xizmat qiladi. Bu koeffitsientning sur'atida ob'ektning xizmat muddati oxirigacha qolgan yillar soni (teskari tartibda) turadi. Bu usulda xam, oldingilarga o'xshash, eskirish summasi boshlang'ich qiymatdan tugatish (qoldiq) qiymati chegirilgandan qolgan qismidan xisoblanadi.

Masalan, yuqorida misol tariqasida olingan dastgoxning taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati 5 yil bo'lsin. U xolda, dastgoxni ishlatish yillari summasi (kumulyativ son) - 15 yil bo'ladi:

$$1+2+3+4+5=15$$

Dastgoxning xizmat muddatining xar yiliga to'g'ri keladigan eskirish summasi ulishini topish uchun xizmat muddatini oxirigacha bo'lgan yillarni (ya'ni teskari tartibda) kumulyativ songa bo'lib chiqamiz, ya'ni:

$$5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15.$$

So'ngra, xar bir kasrni eskirish xisoblanadigan summa (B-T) ga ko'paytirish orqali xar yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi. Bu usulda amortizatsiya ajratmalari summasi jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$1 \text{ yil } (5/15) \cdot 4500000 = 1500000$$

$$2 \text{ yil } (4/15) \cdot 4500000 = 1200000$$

$$3 \text{ yil } (3/15) \cdot 4500000 = 900000$$

$$4 \text{ yil } (2/15) \cdot 4500000 = 600000$$

$$1 \text{ yil } (1/15) \cdot 4500000 = 300000$$

Jadvalda keltirilgan xisoblardan ko'rinib turibdiki, dastgoxning xizmat muddatini dastlabki yillarida eng katta amortizatsiya summasi xisoblanmoqda, keyingi yillarda esa, u yilma-yil kamayib bormoqda, jamlangan amortizatsiya sekin-asta ortib boradi, balans qiymati qoldiq qiymatga etib bormagunicha xar yili eskirish summasiga kamayib boradi.

1.3.3. jadval

Sonlar yig'indisi usulida amortizatsiya harajatlari hisobi.

(so'm hisobida)

Sana	Boshlang'ich qiymat	Yillik eskirish summasi	Jamlangan eskirish summasi	Qoldiq qiymat
1-yil	500000	1500000	1500000	3500000
2-yil	3500000	1200000	2700000	2300000
3-yil	2300000	900000	3600000	1400000
4-yil	1400000	600000	4200000	800000
5 yil	800000	300000	4500000	300000

Manbaa: Formulani hisoblash uchun muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu usulning ijobiy xususiyati asosiy fondning qiymatini dastlabki yillarida amortizatsiya summaları orqali qoplash. Bu o'z navbatida korxonaga ichki investitsiya imkoniyatlarini oshiradi, chunki amortizatsiyada harajat amalda asosiy fond sotib olingan paytda qilingan, endi uni sekin astalik bilan hisobga olinadi va tezroq yangi texnologiya olib kirish uchun imkoniyat yaratadi.

Kamchiligi amortizatsiyaning dastlabki davrida amortizatsiya harajatlari ko'p oxirida esa kam bo'lishiga olib keladi.

b) kamayib boruvchi(ikkilangan me'yor) qoldiq usuli. Asosiy vositalarga eskirish xisoblashning bu usuli sonlar yig'indisi usuli tamoyillariga asoslangan. Kamayib boruvchi qoldiq usulida xar qanday qat'iy belgilangan eskirish me'yorini qo'llanilishi mumkin bo'lsada, ko'pincha to'g'ri chiziqli usulda foydalangan normal eskirish me'yorga nisbatan ikki karra ko'paytirilgan me'yor qo'llaniladi. Shuning uchun xam, ayrim xollarda bu usulni ikkilangan me'yorlarda kamayib boruvchi qoldiq usuli, deb xam atashadi.

Oldingi misolda dastgoxning foydali xizmat muddati 5 yilga teng edi. Bir tekisda eskirish xisoblash usulida o'rtacha yillik eskirish me'yori 20 foiz ($100\%/5$ yilga)ni tashkil qiladi. Kamayib boruvchi qoldiq usulida xisobdan chiqarishning ikkilangan me'yorida eskirish me'yori 40 foiz ($2 \times 20\%$)ga teng bo'ladi. Qayd qilingan ushbu 40 foiz xar yil oxirida qoldiq qiymatiga ko'paytiriladi. Eskirishni xisoblashda taxmin qilinayotgan tugatish qiymati, oxirgi yildagisidan tashqari hisobga olinmaydi. Bu usulni ifodalovchi jadval pastda keltirilgan:

1 yil $5000000 \cdot 40\% = 2000000$
 2 yil $(5000000 - 2000000) \cdot 40\% = 1200000$
 3 yil $(3000000 - 1200000) \cdot 40\% = 720000$
 4 yil $(1800000 - 720000) \cdot 40\% = 432000$
 5 yil $(1080000 - 432000) - 500000 = 148000$

1.3.4.jadval

Kamayib boruvchi qoldiq usulida amortizatsiya harajatlari hisoblash.

(so'm hisobida)

Sana	Boshlang'ich qiymat	Yillik eskirish summasi	Jamlangan eskirish summasi	Qoldiq qiymat
1-yil	5000000	2000000	2000000	3000000
2-yil	3000000	1200000	3200000	1800000
3-yil	1800000	720000	3920000	1080000
4-yil	1080000	432000	4352000	648000
5-yil	648000	148000	4500000	500000

Manbaa: Formulani hisoblash uchun muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, amortizatsiyaning qat'iy me'yori doimo oldingi yilning boshlang'ich qiymatiga nisbatan ishlatilgan. Amortizatsiya summasi (eng kattasi birinchi yilda) yildan-yilga kamayadi va nixoyat, oxirgi yildagi amortizatsiya summasi qoldiq qiymatini tugatish qiymatigacha kamaytirish uchun zarur bo'lgan summa bilan cheklangan. Bu usulni asosan tez o'zgaruvchan texnologiyalarni qo'llaydigan korxonalar qo'llaydilar. Bu usulning qulayligi asosiy fondni dastlabki yillarida eng ko'p amortizatsiya ajratmalari to'g'ri keladi, bu asosiy fondning foydali davrida amortizatsiya harajatlarni taqsimlashga imkoniyat yaratadi.

Oxirgi yilgi eskirish summasi asosiy vositaning 4-yilga qoldiq qiymati va xizmat muddati oxiriga tugatish qiymati orasidagi farq summasini tashkil qiladi.

Asosiy vositalar eskirishini xisoblash bo'yicha yuqoridagi to'rt xil usulning qo'llanilishi zamon talabidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar asosiy

vositalar eskirishini tezlashtirilgan usul bilan xisoblab, ularning ma'naviy eskirishining oldini olishi mumkin. Bundan tashqari, korxonalarda kuchli raqobatchilik sharoitida doim xam bir maromda ishlash imkoni bo'lmasligi mumkin. Bunday sharoitda ishlatilmagan asosiy vositalar bo'yicha eskirishni xisoblash korxona xarajatlarining asossiz ravishda ortib ketishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ana shunday holatlarni xisobga olgan xolda, korxonalar eskirish xisoblashning 2-, 3-, 4-usullaridan foydalanishlari mumkin. Bizning amaliyotda an'anaviy ravishda bir maromda (chiziqli) xisoblash usulidan foydalaniladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, asosiy vositalarning eskirishi xar oyda belgilangan amortizatsiya normalariga binoan xisoblanadi va tegishli xarajatlar tarkibiga kiritiladi. Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo'lgan mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruxlarga taqsimlanadi:

1.3.5.Jadval.

Soliq kodeksiga asosan asosiy vositalarga hisoblanadigan amortizatsiyaning eng yuqori me'yorlari.

Guruxlar tartib raqami	Kichik guruxlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortiza tsiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I		Binolar, imoratlar va inshootlar	
	1	Binolar, imoratlar	5
	2	Neft va gaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarning temir yo'llari	
	9	Qirg'oqni mustaxkamlovchi, qirg'oqni ximoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig'implar	

	11	Ichki xo'jalik va xo'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog'i	
	13	Xavo kemalarining uchish-qo'nish yo'llari, yo'laklari, to'xtash joylari	
	14	Bog'larning va xayvonot bog'larining inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II		Uzatish qurilmalari	
	1	Elektr uzatish xamda aloqa qurilmalari va liniyalari	
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	8
	4	Magistral quvurlar	
	5	Boshqalar	
III		Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar	
	1	Issiqlik texnika uskunalari	8
	2	Turbina uskunalari va gaz turbinalari	

		qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (xarakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV		Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar (xarakatlanuvchi transportdan tashqari)	
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va uskunalar	
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va uskunalari	
	3	Kommunikatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron uskunalari, raqamli tizimlar uzatish uskunalari, raqamli aloqa o'lchov texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va trunking aloqa uskunalari	
	5	Uzatishlar tizimlari kommunikatsiyalarining o'xshash uskunalari	
	6	Kinostudiyalarning maxsus uskunalari, tibbiy va mikrobiologiya sanoati uskunalari	
	7	Kompressor mashinalari va uskunalari	

	8	Nasoslar	
	9	Ofis mebeli, orgtehnika va kompyuterlar ko'tarish-transport, Ofis mebeli, orgtehnika va kompyuterlar ortish-tushirish mashinalari va uskunalari, tuproq, karer xamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalari, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalari	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdagi sig'implar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunalari	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V		Xarakatlanuvchan transport	
	1	Temir yo'lining xarakatdagi tarkibi	
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	8
	3	Xavo transporti	
	4	Avtomobil transportining xarakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
	5	Engil avtomobillar	

	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	10
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	20
VI		Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari	
	1	Компьютерлар	20
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	
VII		Boshqa guruxlarga kiritilmagan asosiy vositalar	
	1	Ko'p yillik dov-daraxtlar	10
	2	Boshqalar	15

Manbaa: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidan olingan.

“GM-O'zbekiston” YoAJ faoliyati va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili

2.1.Tehnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili

Mustaqil O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga oltin harflar bilan bitilgan Asaka shahridagi “O'z DEU avto” qo'shma korxonasi o'z faoliyatini boshlagandan buyon

barqaror ishlab kelmoqda. Bu qo'shma korxonaning ishga tushishi O'zbekiston avtomobilsozlik sanoatida tub burilish bo'ldi va O'zbekiston jahondagi 28 ta avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatning biriga aylandi. Qo'shma korxona dastlabki yillarda O'zbekiston bozoriga "Tiko", "Damas", "Neksiya" avtomobillarni ishlab chiqara boshlagan edi. Ishlab chiqarishning dastlabki 1996 yilida 25300 dona avtomobil ishlab chiqargan edi. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich qariyb 8 barobar ko'paydi. Qo'shma korxona O'zbekiston uchun ijtimoiy ahamiyati ham juda muhimdir.

- Chet el investitsiyalari va texnologiyalari oqimi;
- Malakli kadrlar tayyorlash;
- Xalq ehtiyojini qondirish;
- Aholi turmush tarzini yaxshilanishi;
- Aholi bandligi, yangi ish o'rinlarining barpo etilishi.

Qo'shma korxonada mahsulotlarni ishlab chiqarish quyidagi sanalarda boshlangan:

Damas Coach/van	25 mart 1996 yil
Tiko kichik klasdagi yengil avtomobillar	15 iyun 1996 yil
Kichik klasdagi Nexia avtomobillari	25 iyun 1996 yil
Matiz kichik klasdagi yengil avtomobillar	17 avgust 2001 yil
Kichik klasdagi Nexia DONS avtomobilarlari	12 avgust 2002 yil

"GM-O'zbekiston" Qo'shma korxonasining 3 yillik texnik-iqtisodiy ko'satkichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak 2009 yilda 2007yilga nisbatan sotish hajmi 49% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2.1.1.jadval

"GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasining 2007-2009 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2009yil 2007 yilga nisbatan o'zgarishi		2009yil 2008 yilga nisbatan o'zgarishi	
						+/-	%	+/-	%
1	Tovar mahsulot hajmi solishtirma narxlarida	Mln. so'm	1421127	1970002	2117975	696848	149	147973	107.5
2	Umumiy ishchilar soni	Kishi	5742	5254	5428	-314	95	174	103
3	Mehnat unumdorligi	Ming so'mda	247497	374952	390194	142697	158	15242	104
4	Ish haqi jamg'armasi	Mln. so'mda	26310	27112	29149	2839	111	2037	108
5	O'rtacha oylik ish haqi	Ming so'mda	381,8	430,0	447,5	65,7	117	17,5	104
6	Mahsulot tannarxi	Mln. so'mda	232062	382598	445919	213857	192	63321	116
7	Sof foyda	Mln. so'mda	26219	58822	63240	37021	241	4418	107
8	Rentabellik	%	11,3	15,4	14,2	2,9	125	-1,2	92
9	Kadrlar qo'nimsizligi	%	1,4	1,7	1,6	0,2	118	-0,1	94

Manbaa: "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasining hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sotish hajmining bunday o'sishiga asosiy ikki omil bilan ifodalashimiz mumkin bo'ladi. Bular mahsulot sotish hajmining oshishi va mahsulot narxining oshishi bilan izohlanadi. Shuningdek 2007 yildan boshlab "Shevrole" rusumidagi "Epica", "Kaptiva", "Takuma" mahsulotlarining ishlab chiqarish boshlanib yildan yilga oshib bormoqda. Bu avtomobillar jahon talablariga javob berib oldingi "Nexia", "Damas", "Matiz" avtomobilariga nisbatan sifatli va jahonning rivojlangan

davlatlarning avtomobilalari bilan raqobatlasha oladi. 2009yilda esa 2008yilga nisbatan 7.5% ga oshgan. Bu ko'rsatkich 2008 yilga nisbatan ancha past. 2009 yilda butun jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hukm surayotgan tufayli "GM-O'zbekiston" Qo'shma korxonasining eksport darajasiga ma'lum miqdorda ta'sir qildi, chunki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tufayli ko'plab mamlakatlarda uy-joy va avtomobillarga talabning pasayishi tufayli avtomobilarning narxi tushishi qo'shma korxona eksport salohiyatiga ta'sir ko'satmay qolmadi.

Umummiy ishchilar soni 2009 yilda 2007 yilga nisbatan 5% kamaygan. Bunda korxonada ishchilar soni kamaygani bilan mehnat unumdorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2009 yilda esa 2008 yilga nisbatan 3%ga ko'paygan.

Mehnat unumdorligi 2009 yilda 2007 yilga nisbatan 58%ga oshgan. Bunga asosiy sabab esa "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasida mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar natijasida bunday ko'rsatkichga erishildi. Ishchilar soni kamayganiga qaramasdan mehnat unumdorligining oshishi tufayli mahsulot ishlab chiqarish o'sishiga erishildi. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan mehnat unumdorligi 4%ga oshdi.

Ish haqi jamg'armasi 2009 yilda 2007 yilga nisbatan 11%ga oshgan bunga sabab ishchilar sonining kamayishi tufayli ish haqi jamg'armasi kamayishiga sabab bo'ladi, lekin o'rtacha ish haqining o'sishi tufayli ish haqi jamg'armasining o'sgan. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 8%ga oshdi. Bunda 2009 yilda 2007 ishchilar soni kam bo'lgani bilan o'rtahca ish haqining o'sishi tufayli ish haqi jamg'armasi o'sishi kuzatilmoqda. 2009 ish haqi jamg'armasining 2008 yilga nisbatan sezirlarli o'sishiga sabab esa ishchilar sonining 2007 yilga nisbatan kam bo'gani bilan 2008 yilga nisbatan o'sishi sabab bo'lgan.

O'rtacha oylik ish haqi o'rtacha oylik ish haqi 2009 yilda 2007 yilga nisbatan 17%ga oshdi. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 4%ga oshdi.

Mahsulot tannarxi 2009 yilda 2007 yilga nisbatan 92%ga oshgan. Bunga sabab esa mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi, avtomobil ehtiyot qismlarinig narxini o'sishi va boshqa harajatlarning o'sishi sabab bo'ldi. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 16%ga oshgan mahsulot ishlab chiqarish hajmiga

nisbatan anchagina mahsulot tannarxining o'sishi tezroq o'sgan. Bunga sabab ehtiyot qismlarning narxini o'sishi, shuningdek yangi rusumli "Shevrole" rusumli avtomobillarning miqdorini yildan yilga ortmoqda (bu modellar boshqa modellarga nisbatan tannarxi ancha baland).

Sof foydasi 2009 yilda 2007 yilga nisbatan 141%ga oshgan. Bunday yuqori ko'satkichga erishishga sabab korxonada mehnat unumdorligining oshganligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshganligi (korxonaning ishlab chiqarish hajmi oshganda uning doimiy harajatlari o'zgarishsiz qoladi va boshqa o'zgaruvchan harajatlar ishlab chiqarish hajmi bilan bir xilda o'sadi, buning natijasida esa korxna foydasi ishlab chiqarish hajmiga nisbatan tezroq o'sadi), 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 7%ga oshgan. Bunday foyda o'sishidagi katta farq sababi harajatlarning ortib ketishi va shuningdek jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Rentabillik darajasi 2009 yilda 2007 yilga nisbatan 25%ga o'sgan bunda korxonaning foydasining o'sishi sabab bo'lgan. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan rentabellik darajasi 8% pasaygan. Bunga sabab esa 2009 yilda foyda 2008 yilga nisbatan oshganiga qaramasdan mahsulot tannarxining oshishi evaziga rentabellik darajasi pastroq bo'lishiga sabab bo'lgan.

Korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yanada yaxshiroq tahlil qilish uchun omilli tahlil o'tkaziladi. Bunda omillarni asosiy texnik-iqtisodiy har bir omilning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri alohida tahlil qilinadi. Bunday tahlil o'tkazishda ko'proq zanjirli bo'g'lanish usulidan foydalaniladi. Mehnat unumdorligi va ishchilar soni o'rtasida funksional bog'lanish mavjud bo'lganligi uchun omillarning ta'sirini tahlil qilishda zanjirli bog'lanish usulini qo'llash mumkin. Mahsulot hajmiga ishchilar soni va mehnat unumdorligining ta'siri quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M=X*Y$$

Bu yerda:

M—ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

X—ishchilar soni;

Y—mehnat unumdorligi;

Ishchilar sonining o'zgarishi mahsulot hajmiga ta'siri quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$M_X = X_1 * Y_0 - X_0 * Y_0$$

Mehnat unumdorligining o'zgarishi mahsulot hajmiga ta'siri quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$M_Y = X_1 * Y_1 - X_1 * Y_0$$

Bu yerda:

X_1 —joriy yildagi ishchilar soni;

X_0 —o'tgan yildagi ishchilar soni;

Y_1 —joriy yildagi mehnat unumdorligi;

Y_0 —o'tgan yildagi mehnat unumdorligi;

Omilarning umumiy ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$M = M_X + M_Y$$

Ishchilar sonining 314 kishiga kamayishi evaziga mahsulot hajmi 77415mln. so'mga kamaygan.

$$M_X = X_1 * Y_0 - X_0 * Y_0 = 5428 * 247,496 - 5742 * 247,496 \approx -77715$$

Mehnat unumdorligining 142,698 mln so'mga oshishi evaziga mahsulot hajmi 774563mln so'mga oshgan.

$$M_Y = X_1 * Y_1 - X_1 * Y_0 = 5428 * 390,194 - 5428 * 247,496 \approx 774563$$

Ishchilar soni kamayishi mahsulot hajmining kamayishiga olib kelgani bilan mehnat unumdorligining oshishi evaziga mahsulot hajmi 696848 mln. so'mga oshgan.

$$M = M_X + M_Y = -77715 + 774563 = 696848$$

2.1.3 jadval

2009 yildagi mahsulot hajmining 2007 yilga nisbatan o'zgarishiga mehnat unumdorligi va ishchilar sonining o'zgarishining ta'siri tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2007 yil	2009 yil	Farq
1	Mahsulot sotishdan tushgan tushum	Mln. so'm.	1421127	2117975	696848
2	Ishchilar soni(kishi)	Kishi	5742	5428	-314
3	Mehnat unumdorligi	Mln. so'm	247,496	390,194	142,698

Manbaa: "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasining hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ishchilar sonining 174 kishiga ko'payishi evaziga mahsulot hajmi 77415mln. so'mga ko'paygan.

$$M_X = X_1 * Y_0 - X_0 * Y_0 = 5428 * 374,953 - 5254 * 374,953 \approx 65242$$

Mehnat unumdorligining 15,242 mln so'mga oshishi evaziga mahsulot hajmi 82731 mln so'mga oshgan.

$$M_Y = X_1 * Y_1 - X_1 * Y_0 = 5428 * 390,194 - 5428 * 374,953 \approx 82731$$

Ishchilar soni kamayishi mahsulot hajminig kamayishiga olib kelgani bilan mehnat unumdorligining oshishi evaziga mahsulot hajmi 147973 mln. so'mga oshgan.

$$M = M_X + M_Y = -65242 + 82731 = 147973$$

Rentabellik darajasining omilli tahlili korhona uchun juda ham muhimdir. Rentabellik darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$R = \frac{F}{Q}$$

2.1.4- jadval.

2009 yil mahsulot hajmining 2008 yildagi mahsulot hajmiga nisbatan o'zgarishiga mehnat unumdorligining va ishchilar sonining ta'siri.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2008 yil	2009 yil	Farq
1	Mahsulot sotishdan tushgan tushum	Mln. so'm.	1970002	2117975	147973
2	Ishchilar soni(kishi)	Kishi	5254	5428	174
3	Mehnat unumdorligi	Mln. so'm	374,953	390,194	15,242

Manbaa: "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sof foydaning o'zgarishi rentabellik darajasiga ta'siri quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$R_F = \frac{F_1}{Q_0} - \frac{F_0}{Q_0}$$

Mahsulot tannarxining o'zgarishi rentabellik darajasiga ta'siri quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$R_Q = \frac{F_1}{Q_1} - \frac{F_1}{Q_0}$$

Bu yerda:

F_0 —o'tgan davrdagi foyda;

F_1 —joriy davrdagi foyda;

Q_0 —o'tgan davrdagi mahsulot hajmi;

Q_1 —joriy davrdagi mahsulot hajmi.

$$R = R_F + R_Q$$

2.1.5- jadval.

2009 yildagi rentabellik darajasining 2007 yilga nisbatan o'zgarishiga sof foyda va mahsulot tannaxining o'zgarishining ta'siri tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2007 yil	2009 yil	Farq
1	Sof foyda	Mln. so'm	26219	63240	37021
2	Mahsulot tannarxi	Mln. so'm	232062	445919	213857
3	Rentabellik darajasi	%	11,3	14,2	2,9

Manbaa: "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasining hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2009 yilda sof foydaning 37021mln. so'mga o'sishi evaziga rentabellik darajasi 16%ga oshgan.

$$R_F = \frac{F_1}{Q_0} - \frac{F_0}{Q_0} = \frac{63240}{232062} - \frac{26219}{232062} = 0,16 * 100\% = 16\%$$

Mahsulot tannarxining 2009 yilda 213857mln. so'mga o'sishi evaziga rentabellik darajasi 13,1%ga kamaygan.

$$R_Q = \frac{F_1}{Q_1} - \frac{F_1}{Q_0} = \frac{63240}{445919} - \frac{63240}{232062} = -0,131 * 100\% = -13,1\%$$

Umumiy holatda rentabellik darajasi 2,9%ga o'sgan

$$R = R_F + R_Q = 16\% - 13,1\% = 2,9\%$$

2.1.6- jadval.

2009 yildagi rentabellik darajasining 2008 yilga nisbatan o'zgarishiga mehnat unumdorligi va ishchilar sonining o'zgarishining ta'siri tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2008 yil	2009 yil	Farq
1	Sof foyda	Mln. so'm	58822	63240	4418
2	Mahsulot tannarxi	Mln. so'm	382598	445919	63321
3	Rentabellik darajasi	%	15,4	14,2	-01,2

Manbaa: "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasining hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2009 yilda sof foydaning 4418mln. so'mga o'sishi evaziga rentabelik darajasi 1,1%ga oshgan.

$$R = \frac{F_1}{Q_0} - \frac{F_0}{Q_0} = \frac{63240}{382598} - \frac{58822}{382598} = 0,011 * 100\% = 1,1\%$$

Mahsulot tannarxining 2009 yilda 63321mln. so'mga o'sishi evaziga rentabellik darajasi 2,3%ga kamaygan.

$$R_Q = \frac{F_1}{Q_1} - \frac{F_1}{Q_0} = \frac{63240}{445919} - \frac{63240}{382598} = -0,023 * 100\% = -2,3\%$$

Umumiy holatda rentabellik darajasi 1,2%ga kamaygan.

$$R = R_F + R_Q = 1,1\% - 2,3\% = -1,2\%$$

Korxona faoliyatiga baho berishda mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'rganish talab etiladi. "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasining 2007-2009 yillardagi asosiy iqtisodiy texnik-ko'rsatkichlariga baho berishda mahsulot ishlab chiqarish hajmini tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsulot ishlab chiqarish tahlilining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

- Korxona yoki firma iqtisodiyotini chuqur o'rganish va yanada rivojlantirish;
- Korxona yoki firma ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish;
- Bugalteriya va statistika hisobotlari asosida erishilgan yutuqlarni va yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablarni o'rganish;

- Korxona yoki firmaning har tomonlama faoliyatini, iqtisodiyotining rivojlanish doirasi va sur'atini o'rganish;
- Yutuqlardan unumli foydalanish, kamchiliklarni o'z vaqtida o'z vaqtida oldini olish;
- Tahlil yakunlariga ko'ra ish natijalariga ta'sir etgan omillarni va ularni keltirib chiqargan sabablarni o'rgaish;
- Imkoniyatlarni qidirib topish va ulardan iqtisodiy faoliyat jayonida to'liq foydalanish va boshqalar.

2.1.7 jadval.

“GM-O'zbekiston” YoAJda mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

№	Mahsulotlar	O'lchov birligi	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2009yil 2008 yilga nisbatan o'zgarish		2009yil 2007yilga nisbatan o'zgarish	
						+/-	%	+/-	%
1	Neksiya	Dona	85179	97520	100390	12341	114	15211	118
2	Damas	Dona	20843	21530	22164	687	103.3	1321	106
3	Matiz	Dona	64576	71250	73347	6674	110.3	8771	114
4	CKP (Lacetti, Epica,Kaptiva, Takuma)	Dona	8770	8850	9110	80	100.3	340	104
5	Jami	Dona	179368	199150	205011	19782	111	25643	114

Manbaa: “GM-O'zbekiston” qo'shma korxonasining hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

“GM-O'zbekiston” qo'shma korxonasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Ishlab chiqarish hajmini yildan yilga faqat miqdor jihatdan emas balki sifat jihatdan, shuningdek mahsulot turlari ham oshib bormoqda. Qo'shma korxona dastlab ishga tushganda faqat uch turdagi “Tiko”, “Neksiya”, “Damas” avtomobilarini ishlab chiqarardi. 2001yildan boshlab “Matiz”, 2002 yildan boshlab “Neksiya” , 2007 yildan boshlab esa “Shevrole” modellari “Captiva”, “Takuma”, “Epika” avtomobilarini ishlab chiqarish boshlandi.

2007-2009 yillarda ishlab chiqarish hajmi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanishiga qaramasdan oshib bormoqda. Neksiya avtomobili eng ko'p ishlab chiqarilayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu mahsulotga ichki va tashqi bozorda talab boshqa avtomobillarga nisbatan yuqori.

2.2 Asosiy fondlar hisobi va ularga amortizatsiya hisoblash tahlili

“GM-O”zbekiston” qo'shma korxonasida asosiy vositalarga quyidagi shartlarga bajadigan aktivlar:

- Foydalanish muddati 1 yildan ortiq bo'lishi;
- Eng kam ish xaqining 50 barobaridan yuqori bo'lishi kerak.

Yuqoridagi shartlarni bajarmagan aktivlar asosiy vosita bo'lmaydi. Asosiy vositalarning qiymati hisob siyosatiga asosan harajatga amortizatsiya shaklida olib boriladi. Hisob siyosatiga asosan amortizatsiyaning to'g'ri chiziqli usulidan foydalaniladi. Amortizatsiya harajatlari oylarga teng taqsimlanadi, uning boshlang'ich qiymatidan kelib chiqqan holda uning likvidatsiya qiymati hisobga olinmaydi.

“GM-O'zbekiston” Qo'shma korxonasi asosiy vositalarga amortizatsiya harajatlari hisoblanadigan qiymati bo'lib asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga nisbatan hisoblanadi. Ularning tugatish qiymati 0ga teng deb hisoblanadi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga quyidagi harajatlar o'zgartirishi mumkin:

1. Asosiy vositani qurish harajatlari, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash harajatlari, shuningdek asosiy vositaning foydali xizmat muddatining oshiruvchi harajatlar hisobiga;
2. Asosiy vositaning bir qismi chiqarib yuborilganda, ta'mirlash oqibatida uning foydali ish muddatining kamayishi evaziga;
3. Asosiy vositalarni qayta hisoblash. Qayta hisoblash har yilgi hukumat 1 yanvar holatiga asosiy vositalarni qayta hisoblash qaroriga asosan koeffitsiyent asosida amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni joriy ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish harajatlari asosiy vositalarning qiymatiga qo'shilmaydi va ular mahsulot tannarxiga yoki davr harajatlariga olib boriladi. Qo'shma korxonada asosiy juda ko'pligi asosiy vositalar alohida bo'yicha amortizatsiya hisoblash qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun barcha asosiy vositalarni 5ta guruhga bo'lib, guruhlarga amortizatsiya me'yorlari belgilangan.

2.2.1 jadval.

Asosiy vositalarga amortizatsiya bo'yicha yillik amortizatsiya me'yorlari

№	Asosiy vosita turlari	Yillik me'yor %
1	Bino, imorat, inshoot	2,5
2	Ofis mebeli, orgtehnika va kompyuterlar (aravali traktorlar)	15
3	Yengil avtomobillar	20
4	Mashina va uskunalar	10
5	Ofis mebellari, orgtehnika, kompyuterlar	20

Manbaa: "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasining hujjatlaridan olingan.

"GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash asosiy vosita asosiy vositalar tarkibiga qabul qilgan oydan keyingi oyning boshidan hisoblanadi.

Qo'shma korxonada asosiy vositalar quyidagi holatlarda hisobdan chiqariladi:

- likvidatsiyada;
- sotilganda yoki almashtirilganda;
- tekinga berilganda;
- lizing shartnomasi asosida ijaraga berilganda.

Quyidagi holatlarda asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash to'htatiladi:

- asosiy vositalar konservatsiya qilinganda;
- qayta qurish davrida boshlanganda;
- hisobdan chiqirilganda.

2.3 Amortizatsiya harajatlari tarikibi tahlili.

“GM-O‘zbekiston” qo‘shma korxonasida amortizatsiya harajatlari hisobga olishda biz ishning ikkinchi bobida asosiy vositalarni turlari bo‘yicha 5 ta guruxga bo‘lib me‘yor belgilanganini ko‘rib o‘tgan edik. Bu guruhga bo‘lish soliq kodeksi me‘yorlariga asoslanish tufayli bo‘lingan edi. “GM-O‘zbekiston” qo‘shma korxonasida amortizatsiya harajatlari tarkibini o‘rganishda quyidagi guruxlarga bo‘lib o‘rganiladi:

- bevosita ishlab chiqarish jarayonidagi (mahsulot tannarxiga kiruvchi) amortizatsiya harajatlari;
- hizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq amortizatsiya harajatlari;
- sotish bilan bog‘liq amortizatsiya harajatlari;
- ma‘muriy harajatlari bilan bog‘liq amortizatsiya harajatlari.

Ushbu guruhlar bo‘yicha 2007-2009yillardagi amortizatsiya harajatlarining o‘zgarishi 2.3.1 jadvalda keltirilgan

Amortizatsiya harajatlarning guruhlardagi salmog‘ini belgilovchi omillar quyidagilar:

- asosiy vositalarga belgilangan amortizatsiya me‘yori;
- asosiy vositalarning dastlabki qiymati va umumiy guruhdagi asosiy vositalarning umumiy qiymati.

2009 yilda 2007 yilga nisbatan bevosita ishlab chiqarish bilan bog‘liq amortizatsiya harajatlar 49%ga oshgan. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 39%ga oshgan.

2009 yilda 2007 yilga nisbatan hizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq amortizatsiya harajatlar 41%ga oshgan. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 13%ga oshgan.

2009 yilda 2007 yilga nisbatan hizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq amortizatsiya harajatlar 49%ga oshgan. 2009 yilda 2008 yilga nisbatan 39%ga oshgan.

